

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI PEDAGOGLARI UCHUN PLENER AMALIYOTLARINING AFZALLIKLARI

Jizzax davlat pedagogika universiteti fizika
va texnologik ta’lim fakulteti tasviriy
san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi talabasi

Asatullayeva Go‘zal Sirojiddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at pedagog talabalari uchun plener amaliyotining ahamiyati, talaba-ijodkor nigohi bilan o‘rganiladi. Tabiatda ranglarni idrok etish, ochiq osmon ostida rang o‘zgarishlarini his qilish va o‘simliklar daraxtlar xarakterini tasvirlashning afzalliklari zamonaviy va klassik metodikalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Plener, tasviriy san’at, rangni idrok etish, havo perspektivasi, bo‘lajak pedagog, etyud, ijodiy tafakkur, muhandislik grafikasi, metodika, badiiy mahorat.

Tasviriy san’at talabalari uchun nazariy bilimlar va amaliyotning eng go‘zal kesishgan nuqtasi — bu plener deb hisoblayman. Plener o‘zi nima? "Plener" (fransuzcha en plein air — ochiq havoda) o‘z nomi bilan ochiq havoda rasm chizish ijod qilish ma’nosini anglatadi. Plener talabani bor imkoniyatlarini balki dunyoni estetik idrok etish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bo‘lajak pedagog sifatida biz uchun bu shunchaki rasm chizish emas, balki tabiatning "jonli darsligi" desak ham bo‘ladi. Chunki plener o‘quv amaliyotida rangni idrok etish, rangni his qilishni boshlaymiz. Tasavvur qiling ochiq osmon ostidasiz atrofda esa go‘zal tabiat har bir daraxt, o‘t- o‘lanlar qushlar, yaproqlar undagi ajoyib ranglar uyg‘unligi quyoshning soniya sayin atrofdagi daraxtlar gullardagi jilosini o‘zgartirib harakatlanishini daqiqa,

soniya sayin yaproqlardagi soya yorug' ranglar jilosi o'zgarayotganini ko'rib har bir ijodkor o'zgacha ilhom oladi. Plener o'quv amaliyotida rangni ko'rish — bu shunchaki ob'ektning rangini ajratish emas, balki yorug'lik va muhitning o'zaro ta'sirini anglashdir. Talaba o'quv xonalarida o'rgangan buyumning o'z rangini tabiatda mutlaqo boshqacha ranglarda ko'radi.

Pedagog olim N.N. Rostovsev ta'kidlaganidek, plenerda talabaning "ko'zi pishadi". Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan 2020-yilda chop etilgan metodik qo'llanmalarda (masalan, B. Boymetov va boshqalar), plener mashg'ulotlari talabaning "koloristik tafakkuri"ni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rishgan. Bu jarayonda talaba quyidagilarni o'rganadi deb ta'kidlab o'tilgan.

Optik aralashish bu - Ranglarning masofadan turib bir-biriga ta'siri.

Havo perspektivasi: Havodagi namlik va changning rang tozaligiga ta'sir ettirishini ko'rishimiz mumkin ekan. Bu esa talabadan professional yondashishni talab etadi.

Havoning isishi yoki aksincha sovishi yomg'ir qor yog'ishi manzaradagi ranglarning bir biriga uyg'un holda o'zgarishini ko'rsatadi. Amaliyot davomida chizgan asarlarimda men tabiatning turli holatlarini kuzatdim. Ayniqsa, issiqdagi manzara tasviri menda katta taassurot qoldirdi. Issiq havoda ranglar go'yo "erib ketgandek" tuyuladi; uzoqdagi tog'lar va daraxtlar moviy-kulrang shafaq ortiga yashirinadi. Bu — havo perspektivasining qonuniyatlaridan biridir. Ayniqsa plener jarayonidagi kun botish paytidagi etyudlarim juda yoqadi bunga sabab esa ranglar huddi bir biri bilan jangga tushayotgandek birin ketin o'zgarib birinchi rang ikkinchi rangga taslim bo'ladi. Quyoshning so'nggi nurlari daraxtlar tanasini va barglarini to'q sariq, qizg'ish tusga bo'yashini kuzatish — bo'lajak pedagog talabalar uchun rang simfoniyasini tushunish demakdir. Men chizgan gullarning nafisligi va daraxtlarning xarakteri ularning biologik shaklini emas, balki "ruhini" qog'ozga tushirishni o'rgatdi. Ijodkor ning plener etyudlarida faqat ranglar emas, balki o'sha kunning hidi ham muhrlangan bo'lishi kerak chunki tomoshabin tomonidan har bitta ishga qaralganda

uni o'sha muhit ichiga tushura olishi uni bir oz bo'lsa ham yomg'ir hidini, quyosh jaziramasini, gullar iforini, yoki aksincha, qahraton sovuq taftini hayolan his qilib bir soniyaga bo'lsa ham o'sha muhit ta'siriga tushura olishi tasavvur qildira olishi lozim. Asardagi bo'yoq hidi — bu yaratuvchanlik ramzi. Biz o'sha issiqni charchoqni emas, balki tabiatning tirik nafasini va moybo'yoqning silliq fakturasini his qilishimiz lozim. Tabiatda har bir daraxtning o'ziga xos "tuzilishi" borligi bir daraxt ikkinchisini takrorlamasligini tabiatda biz o'ylaganimizdan ham biz bilganimizdan ham ko'p ranglar borligini har bir ijodkor o'z nigohida o'z hayolotida uni turlicha tasvirlashi mumkinligini aynan plener jarayonida angladim. Bu esa kelajakda pedagog bo'lib o'z talabalariga ranglar haqida gap ochib uning o'rni haqida gapiradigan ammo o'zi biron marta tabiat qo'ynida uni his qilib ijod qilmagan pedagogni, aslo ustoz deb tan olmagan bo'lardim. Inson qancha tabiatga uyg'unlashsa uni his qilsa shuncha mukammallasha boradi, ranglar tilini tushuna boshlaydi, olamga o'zgacha nigoh bilan qaraydi, avvallari 100 hil rangni ko'rgan bo'lsa keyin 1000 hil rangni ko'rib his qila boshlaydi.

Plenerning bo'lajak pedagog o'qituvchi sifatida tayyorgarlikdagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsam plener o'quv amaliyoti bo'lajak o'qituvchi uchun metodik laboratoriya bo'lib xizmat qiladi. Talaba o'z tajribasida issiq quyosh ostida bo'yoqlarning tez qurishi, soyalarning ko'k va binafsha rangga aylanishi kabi hodisalarni ko'rmas ekan, ertaga o'quvchisiga buni tushuntirib bera olmaydi. 2020-yillarning zamonaviy pedagogik yondashuvlari shuni ko'rsatadiki plener o'quv amaliyotini "ekologik-estetik tarbiya" deb ham bir biriga bog'lasak bo'ladi. Tabiatni sevgan va uning har bir bargidagi rang jilosini his qilgan o'qituvchi o'quvchilarida ham shunday nozik tuyg'ularni uyg'ota oladi deb ishonch bilan ayta olaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Chistyakov P.P. "Pisma, zapiski, vospominaniya" (XIX asr merosi).

Sapojnikov A.P. "Kurs risovaniya" (1844-yil nashri).

Rostovsev N.N. "Metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole" (1980).

Boymetov B., Abdurasulov S. "Chizmatasvir" va "Plener" darsliklari (2018-2020-yillar nashri).